

## ILMIY TARJIMA MURAKKABLIKLARI

UrDU Tarjima nazariyasi va amaliyoti nemis tili yoʻnalishi 3-bosqich talabasi **Sobirova Shohsanam Sobirjonovna**

(Ilmiy rahbar: UrDU tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası oʻqituvchisi: **Yusupova Gulxumor**)

E-Mail: [shokhsanamsobirova@gmail.com](mailto:shokhsanamsobirova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilmiy tarjima murakkabliklari va ilmiy matnlarni tarjima qilish, ilmiy uslub normalaridan foydalanish, bu uslubning qonun-qoidalariga amal qilish, maxsus terminlar bilan ishlash haqida keng maʼlumotlar beriladi.

**Аннотация:** В данной статье представлена обширная информация о сложностях научного перевода и перевода научных текстов, использовании норм научного метода, соблюдении правил этого метода, работе со специальными терминами.

**Abstract:** This article provides extensive information about the complexities of scientific translation and the translation of scientific texts, the use of norms of the scientific method, adherence to the rules of this method, and working with special terms.

**Kalit soʻzlar:** Ilmiy soʻzlar, uslub, tasvir, sintaksis, atama, tarjimon, terminologiya, asliyat.

**Ключевые слова:** Научные слова, стиль, образ, синтаксис, термин, переводчик, терминология, оригинальность.

**Key words:** Scientific words, style, image, syntactic, term, translator, terminology, originality.

## KIRISH

Tarjima nazariyasi, tarjimada izlanuvchi matnning maʼnosi, uslubi, tilning grammatikasi va fonetik xususiyatlariga eʼtibor qaratadi. Bu tarjimada matnning asl maʼnosi va muharrirning ifoda qilish shakli saqlanadi, lekin oʻzaro aloqalari, jumlar va soʻzlar oʻzgartirilishi mumkin. Tarjima amaliyoti esa, bir tilni boshqa tilga oʻtkazish jarayonidagi

amaliyotlarni ifodalaydi. Bu jarayon matnni yaxshi tushunish, uni o'ziga xos uslubda aytish, grammatik qoidalariga rioya qilish, so'zlar va jumlarlar o'rtasidagi aloqalarni aniqlashni talab qiladi. Tarjima amaliyoti davomida tarjimon, matnning o'ziga xos uslubda tarjima qilishga harakat qiladi. Ushbu amalda tarjimon o'z fikrini ifodalaydi va odatda matnning ma'nosi va uslubi bo'yicha keng tahlil qiladi.

Tarjimonga qo'yilgan talablardan eng muhimi tarjimonning nafaqat ikki til bilimlariga, balki muayyan soha bo'yicha ham malakaga ega bo'lishidir. Tarjimonning muayyan sohadagi bilimi ham, xuddi til bilish darajasidek qiymatga ega. Ilmiy tarjima eng ko'p talab qilinadigan tarjima turlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Ilmiy tarjimon mavzu bo'yicha to'liq tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak, chunki ilmiy uslubda yozilgan matnni noto'g'ri tarjima qilish ilm-fanda turli munozarali vaziyatlarga sabab bo'lishi mumkin. Mamlakatimizda professional ilmiy tarjimonlarni tayyorlash oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

## ASOSIY QISM

Ilmiy tarjima, ilmiy matnlarni bir tilidan boshqa tilga o'tkazish jarayonidir. Bu tarjima turi, ilmiy sohada yozilgan kitoblar, maqolalar, tezislar, dissertatsiyalar, monografiyalar va boshqa ilmiy materiallarni boshqa tillarga tarjima qilishni qamrab oladi. Ilmiy tarjima, ilmiy hujjatlarni o'qish va o'rganishda, chet ol olimlari tomonidan yozilgan ilmiy asarlarni o'qishda, tadqiqotchi tomonidan yozilgan ilmiy maqola yoki tezisni butun dunyo tan oluvchi ilmiy bazalarga kiritish, chet el ilmiy jurnallarida maqollara e'lon qilish jarayonlarida muhimdir.

Ilmiy tarjima murakkabligi, bir tilni boshqa tilga o'tkazish jarayonida ko'p qiyinchiliklarni qamrab oladi. Bu murakkabliklar matndagi so'zlar va jumlarlar o'rtasidagi aloqalar, ma'nolar va uslublar, o'zaro cheklovlar va boshqa ko'nikmalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday murakkabliklarni tushunish va aniqlash uchun, tarjimon matnni keng tahlil qilishi kerak. Matndagi so'zlar va jumlarlar o'rtasidagi aloqalar va ma'nolar, matnning asosiy mavzusini tushunish uchun muhimdir. Uslub va uslubiy ko'nikmalar esa, matndagi avvalgi tilning ma'nosi va uslubiga mos kelishi kerak.

Tarjima xarakteriga ko'ra 4 xil bo'ladi:

- 1.Badiiy.
- 2.Ilmiy.
- 3.Publisistik.
- 4.Rasmiy.

Ilmiy asarlar, jumladan, darslik va qo'llanmalar ham shu uslubda yoziladi . Ilmiy uslubda biror mavza bo'yicha aniq, asoslangan izchil ma'lumot berish talab qilinadi.

Ilmiy uslubda yozilgan matnni ona tilida ham tushunish biroz murakkabdir. Va ilmiy matnni tarjima qilish tarjimondan alohida bilim va ko'nikma talab qiladi.. Tarjimon buning uchun nafaqat chet tillarini, balki o'z tilini juda yaxshi bilishi kerak. Agar tarjimon ilmiy matnni to'g'ri tarjima qila olmasa, matnlar orasida tarjima qilish jarayonida katta o'zgarishlar yuz beradi. Bu uslubni tarjima qilish jarayonida matnlardagi so'zlar soni saqlangan bo'lishi kerak. Chunki bitta so'z bilan butun bir tarjima xatolikka uchrashi mumkin.

Tarjimonlar ilmiy asarlarni tarjima qiloyatganda quyidagi ilmiy tarjima turlarini ko'zdan qochirmasliklari kerak.

1. Umumiy xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar.
2. Fanning muayyan sohasiga oid ilmiy asarlar.
3. Fanning ayrim yo'nalishlariga oid asarlar.
4. Har bir asar tarjimasidagi qiyinchiliklar.
5. Sof texnik asarlar.

Tarjimon ilmiy asarlarni tarjima qilayotganida yuqoridagilarni unutmasligi kerak. Ilmiy uslubda ketma-ket tarjima bo'lmaydi. Bunday tarjima usuli ilmiy uslubga begona tushuncha. Quyida nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan ilmiy matnni tahlilga tortdik.

Nemis tili	O'zbek tili
Die Bereicherung des Wortschatzes einer Sprache erfolgt nicht nur durch	Tilning so'z boyligining kengayishi bir qancha usullarda amalga oshiriladi.



die Bildung neuer Wörter (Neologismen), durch Entlehnung aus fremden Sprachen und den sogenannten Bedeutungswandel in bezug auf Einzelwörter, sondern auch dadurch, dass freie syntaktische Wortverbindungen, Wortgruppen, in speziellen Bedeutungen „feste“ und damit zu Bestandteilen des Wortschatzes werden können. Derartige „feste“ Wortverbindungen können unterschiedliche syntaktische und semantische Strukturen haben

Bular yangi soʻzlarning yasalishi (neologizmlar), chet tillaridan oʻzlashma soʻzlarning kirib kelishi va alohida soʻzlarga nisbatan maʼno oʻzgarishi, shuningdek, erkin sintaktik birikmalar, maxsus maʼnoga ega soʻz guruhlari soʻz boyligining tarkibiy qismlariga aylanadi. Bunday turgʻun iboralar turli xil sintaktik va semantik tuzilishga ega boʻlishi mumkin.

(Wolfgang Fleischer. *Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache*. 1982, 7 S.)

Quyidagi tarjima tahlilida ilmiy matn maqsadli tilga tarjima qilingan. Tarjimada maʼno saqlangan, amma asl matn tarkibidagi soʻzlar tarjima matnida kam berilgan yaʼni shakl saqlanmagan.

## XULOSA

Xulosa ilmiy uslub, ilmiy yozuvlar uslubi hisoblanadi va ilmiy maʼlumotlarni tahlil qilish va izohlash uchun ishlatiladi. Bu uslub, akademik standartlarga rioya qilish va oʻquvchilarga mavzuni yaxshi tushunishga yordam berish uchun tuzilgan va toʻgʻri va ishonchli maʼlumotlar taqdim qilish uchun zarurdir.

Tarjima jarayonida eng koʻp uchraydigan uslub aynan ilmiy uslubdir. Bu tarjima uslubi tarjimonlarga biroz qiyinchilik tugʻdiradi va tarjimon mukammal tarjima uchun baʼzida oylar vaqt sariflashi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilov. E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. (oʻquv qoʻllanma) -
2. Rixsiyeva G.Sh. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (Qoʻllanma). Toshkent



3. Jumanazarov U. Ilmiy uslub. Andijon: 2015. –78b. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2021/2022. 126 b. Toshkent: 2012. – 122 b.
4. Xabibullayeva M. Tarjimani ilmiy-ijodiy jarayon sifatida tadqiq etish usullari. Tarjimashunoslik forumi 2022. – 25-33 betlar.
5. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1983.–232b.
6. Fleicher W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. VEB Bibliographisches Institut Leipzig. 1982. – 244.

